

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlanirishda darslarning, ayniqsa ona tili va o‘qish fanlarining ahamiyati yoritilgan. Nutqning tafakkur bilan uzviy bog‘liqligi, uni rivojlanirishdagi mantiqiy fikrlash, mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni izchil ko‘rsatilgan. Shuningdek, o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, talaffuz, sinonimlar bilan ishslash, matn ustida mulohaza yuritish orqali og‘zaki ifoda madaniyatini shakllantirishning amaliy yo‘llari tavsiflangan. Maqolada bolalarning nutq ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni sog‘lom, fikrlovchi va barkamol shaxs etib tarbiyalashga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, og‘zaki, o‘quvchi, boshlang‘ich ta’lim, metod, pedagog, darslik, o‘qish

Annotation

This article In particular, it highlights the role of school subjects—especially the native language and reading—in improving the oral and written speech of primary school students. The inseparable link between speech and thinking, the development of logical reasoning, and the ability to express independent opinions are systematically discussed. Practical methods for enriching students' vocabulary, improving pronunciation, working with synonyms, and engaging in text-based reflection to enhance oral expression culture are also outlined. Special attention is given to teachers' approaches, methodology, the use of technical tools, and the importance of continuity in speech development. The article provides methodological recommendations aimed at strengthening children's speech skills and fostering their growth into healthy, thoughtful, and well-rounded individuals.

Keywords: speech, oral, student, primary education, method, teacher, textbook, reading

“O‘zbekiston – Yoshlar Mamlakati”. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich mamlakatamiz yoshlari haqida shunday fikrlar aytgan edi. “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi osha davlatda yoshlar ta’lim - tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi”¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 24-iyul.2019-y. strategy.uz

Bolaning ilk yoshidanoq unda og‘zaki nutq rivojlanadi uni shakllantirib boyitib borish ota-onasiga, tarbiyachi ustozlar zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi. Bunda har bir bola uchun alohida nutq o‘stirish bo‘yicha mashq va mashg‘ulotlar olib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar barcha darslar davomida nazariy va amaliy bilimlarni olish bilan birga jumlalarni to‘g‘ri tuzish, o‘zaro muomala qoidalari, fikrni bayon etish, qayta ijodiy hikoyalash, she‘r yodlash orqali ularning o‘gzaki nutq ko‘nikmalari ham rivojlanadir. Nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni amaliyatga keng joriy qilinmoqda². So‘nggi yillarda mamlakatimiz xalq ta’limi tizimida ham mustaqil chuqur islohotlar o‘tkazishga keng imkoniyatlar berilmoqda. Shunday islohotlardan biri o‘quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirishga qaratilgandir. Bola nutqining to‘g‘ri shakllanishi asosan boshlang‘ich mакtabda izga solinadi va u o‘rtalik mакtabga o‘тганда to‘laligacha takomillashadi³. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi fanining maqsad va vazifalari. Bola o‘qish tehnikasini egallash uchun avallo, uning savodxonlik darajasini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlanirish, to‘g‘ri talaffuz etishni o‘rgatish kerak. Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o‘qilib, o‘quvchidagi shuningdek, o‘zgalar nutqini tinglab, tushunib olish asosiy maqsad hisoblanadi. O‘quvchining 10 daqiqadan 4 – 5 sahifali matnni o‘qib, qayta so‘zlab bera olishi, o‘zgalar fikrini anglab, uni og‘zaki bayon qila olishi mumkin. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga, axloqiy sifatlariga mакtab o‘quv dasturini o‘zlashtirishda me’yorni ta’minlashi darslik bilan hamohangligini belgilaydi.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurini ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar funksiyasini, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajardi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biridir, o‘quvchi uchun esa nutq mакtabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Modomiki, shunday ekan, ta’lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o‘quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta’lim jarayonining obyekti bo‘lib qolmasdan, ta’lim jarayonida o‘qituvchining teng hamkoriga aylansin va mustaqil fikrlay olish malakasini ham egallab borsin. Hayot jumboqlarini, tabiat tug‘dirgan muammolarni o‘rganish, ularga tegishli javob topish istagi, yana ham to‘g‘rirog‘i, baxt-saodatga erishish muammosi, insonning o‘zini va olamni bilishga bo‘lgan qiziqishi asrlar mobaynida fikrlashga, o‘z fikrlarini mantiqiy asoslashga da’vat qilib keladi. Sharq allomalari asarlarida bu muammoga alohida to‘xtalib o‘tilgani bejiz emas. Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o‘z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta’sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug‘ nomga munosib ish ko‘radi. Sharq va G‘arb olimlari bu muammoni o‘zlari yashab o‘tgan davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda yechishga harakat qilganlar. So‘nggi davrlarga mansub olimlarning asarlarida esa ilmiylik uslubi ustunlik qiladi⁴. O‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun o‘qituvchilar,

² Ta’lim to‘g‘risidagi qonun QRQ-637-son. 23.09.2020-LEX.UZ

³ Madrahimov O‘. Boshlang‘ich sinf O‘quvchilarini nutqini O‘stirish.T. 2016.

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati — M.: 2006-y. 2 – tom. – B.652.

o‘quvchilarning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilish va bog‘lanishi nutqni faol egallashlarida yordam beradigan metod va usullardan foydalanish kerak bo‘ladi. Bolani kichik yoshdanoq ravon tilda gapirishga, fikrni erkin bayon qilishga o‘rgatib borish muhim. Bola nutqining uzviy rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, 2 yoshli bola taxminan 25 – 40; 3 yoshli bola 100 – 120; 6 – 7 yoshli bola esa 300 – 400 so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Bolaning so‘z boyligini oshirish uchun ko‘proq kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, nechta?, nima qildi? Yoki nima qilmoqda? – degan savollar sinflarida o‘tiladigan yozuv va o‘qish darslari tashkil etadi.

Shuningdek 2021-yilda o‘tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o‘quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi. Har besh yilda o‘tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Tadqiqot doirasida asosiy e’tibor o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib qo’llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan. O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mulohaza yuritadi va ushbu mulohazalar asosida og‘zaki fikrini namoyon qiladi. Tadqiqotning afzalligi shundaki bola mantiqan mulohaza yuritmoqda ham og‘zaki fikrlashi ko‘nikmalari rivojlanmoqda. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar barcha darslar davomida nazariy va amaliy bilimlarni olish bilan birga jumlalarni to‘g‘ri tuzish, o‘zaro muomla qoidalari fikrni bayon etish qayta ijodiy hikoyalash, she‘r yodlash orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalari ham rivojlantirib boriladi. Nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi nutqni tuzishga o‘rgatadi. O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida bilim beradi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko‘p so‘z va terminlar bilan o‘z nutqilarini boyitadilar, mantiqiy fikrlaydilar⁵. Boshlang‘ich sinfdagi boshqa darslarda ham o‘quvchi nutqi xilma-xil so‘zlar bilan boyitiladi. Inson tafakkurining beqiyos kengliklari xususida “Qur’oni Karim” va “Avesto”da diniy asosda talqin qilingan bo‘lsa, o‘rtalarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar ilmiy-badiiy usulda talqin qilganlar⁶. So‘nggi davrlarga mansub olimlarning asarlarida esa ilmiylik uslubi ustunlik qiladi.

Nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Bu tovushlar harakati natijasida paydo bo‘ladi. Shuning uchun nutq organlari fiziologiyasini, ularning faoliyatini turli-tuman nutq tovushlarining paydo bo‘lish manbalarini o‘rganish va ulardan ongli foydalana bilish talaffuzning aniq va to‘g‘riligini ta‘minlovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham o‘quvchilar bilan so‘z va uning ma’nolarini egallash ustida uzlucksiz ish olib borish lozim. Bunda sinonim so‘zlarni doimiy ravishda tadrijiy tarzda o‘quvchining nutqiga singdirish alohida ahamiyatga ega. Masalan: yuz, yashil, ixcham, dumaloq, aft, zangori, kichkina, aylana, bashara, ko‘k, jajji, lo‘nda, o‘qituvchi so‘zlar matnning zaruriy elementlari ekanligini o‘quvchilarga singdirib borishni unutmasligi kerak.

⁵A.N.Aminov, A.M.Majidov. Tarbiya (ota-onalar va murabbiylar uchun ensklopediya) ”Davlat” 2010.

⁶ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.224.

O‘quvchilarni og‘zaki bayonga tayyorlash yuzasidan umumiy nutqqa xos bir qator maxsus ishlar olib borilgandan so‘ng uyuştirilgan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchi og‘zaki nutqning alohida takomillashishiga yordam berish kerak. Bunda ayniqsa o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim. So‘zlarning ma’nosini tushunishlari qiyin bo‘lsa, sinonimlardan foydalanish juda muhimdir.

Nutq o‘stirish ishida izchillik bo‘lish, ya‘ni bola maktabga kelgan kundan boshlab, uning nutqidagi nuqsonlarni aniqlash va uni bartaraf etish yo‘llarini belgilash muhim axamiyatga ega. Bola nutqini rivojnishinga vositalar izlash, rasmlar texnik vositalar, kitoblar tanlash, sayr-sayohatlar tashkil qilish, baxslar o‘tkazish kabi tadbirni amalgalash oshirish zarur. Bolaning so‘z boyligini oshirish yo‘llarini izlash, unga muntazam ravishda yangi so‘z, eng kamida 4-5 ta yangi so‘z o‘rgatib borish muhimdir. So‘zlarning ma’nosini va qo‘llanishini o‘quvchilarning nutqiga singdirish ham muhim azaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh. Assambleyasining 72 - sessiyasida so‘zlagan nutqi.
2. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun QRQ-637-son 23.09.2020.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dastiri.Toshkent-2010.
4. Abdullayeva Q. va boshqalar 2-sinfda O‘qish darslari – T: 2004. Safarova R., Darslik T :Ma’naviyat 2016. G‘offorova T., va boshqalar
5. O‘. Boshlang‘ich sinf O‘quvchilarini nutqini O‘stirish.T. 2016
6. O‘qish kitobi : Umumiyy O‘rta ta’lim maktablarining 1 - sinf uchun darslik - Sharq nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri Toshkent -
8. Shoxsanamxon, N. (2025, January). FARG ‘ONA DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING TASHKIL TOPISH TARIXI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION (Vol. 2, No. 1, pp. 21-25).
9. Mirzaliyevna, S. Z., & Muxlisaxon, V. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINLARDA NUTQIY XATOLARNI BARTARAF ETISHNING USULLARI. University Research Base, 441-444.